

## Sayohatnoma

## KIRISH

2024-yilning 11–18-fevral kunlari Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi tomonidan Alisher Navoiy merosi va ko‘hna Xuroson tuproqlaridagi qutlug‘ qadamjolarni o‘rganish maqsadida Eron Islom Respublikasiga ilmiy ekspeditsiya uyushtirildi.

Ekspeditsiya tarkibi o‘n kishidan iborat bo‘lib, navoiyshunoslar va jurnalistlarni birlashtirdi:

Olimjon Davlatov – Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi ijrochi direktori, ilmiy ekspeditsiya rahbari;

Qosimjon Sodiqov – filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori;

Boqijon To‘xliyev – filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori;

Aftondil Erkinov – filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori;

Dilnavoz Yusupova – filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori;

Karomat Mullaxo‘jayeva – filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti;

Soibjon Begmatov – san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor, O‘zbekiston milliy maqom san‘ati markazi bosh direktori;

Erkin A‘zamov – O‘zbekiston xalq yozuvchisi, “Tafakkur” jurnalni bosh muharriri;

Mirodil Abdurahmonov – Milliy tiklanish demokratik partiyasi raisining o‘rnbosari, “Milliy tiklanish” gazetasi bosh muharriri;

Fazliddin Mahmarajabov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktorant-izlanuvchisi.

Ekspeditsiya sakkiz kun davomida tinimsiz ishladi: Eron kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlari qo‘lyozmalar bilan tanishdi, o‘sha o‘lkalaridagi Navoiy qadami tekkan tuproqlarni ziyorat qildi, qadim Xuroson yerlarini o‘rgandi.

Ilmiy ekspeditsiya safarining qisqa tafsiloti shunday:

Tehronga borish yo‘li Turkiyaning Istanbul shahri orqali bo‘ldi. Yurtimizga esa to‘g‘ri Tehrondan qaytdik.

11-fevral kuni tunda (soat 03:40 edi) Turk havoyo‘llari uchog‘ida Istanbulga uchib ketdik; u yerga tongda (mahalliy vaqt bilan 06:55 da) yetib bordik.

Orada bo‘sh vaqt ko‘pligi uchun Istanbulni ko‘rgimiz keldi. Aeroportda qo‘nib o‘tuvchilar uchun servis xizmati bor ekan; o‘shalar bilan gaplashildi. Boshqa yurtlardan kelgan sayyohlar ga qo‘shilib, biz ham avtobusda shahar aylandik. Shahar o‘rtalig‘idagi tarixiy yerlar, Sulton Ahmad masjidi, Ayosofiya maydonini aylandik, rasmga tushdi. So‘ng To‘pqopni saroyi muzeyiga kirdik. Dunyodagi eng unli, yirik muzeylar dan biri: original buyumlari ko‘p: sulton va xotunlarning kiyim-kechaklari, taqinchoqlari, saroy buyumlaridan tortib qurol-aslahalarigacha bari o‘sha zamoni. Muzeyning darajasi ko‘rish uchun qo‘ylgan buyumlarning originalligi bilan o‘lchanadi.

Bizni vaqtidan kechiktirmay, xalqaro aeroportga keltirib qo‘yishdi.

Oqshomqurun (20:05 da) u yerdan Eronning boshkenti Tehronga uchdi. Uchoq 23:45 da Tehronga borib qo‘ndi. U yerda bizni kutib olib, mehmonxonaga joylashtirishdi.

## TEHRONDAGI UCHRASHUVLAR

2024-yil, fevral oyining o‘n ikkinchi kuni.

Biz turgan joy Tehronning bahavo, boy tumani ekan. Shahar tog‘ etagida joylashgan. Tog‘ning narigi tarafi Kaspiy dengizi. Tehron tog‘ning bu yog‘ida, qiyalik bo‘ylab joylashgan; yuqorida qiyalab pastga tomon yoyilib boradi. Binolar hashamatli, ko‘rkam shahar, sharqning javohiri desa bo‘ladi, ko‘chalar tekis, muhimi, yig‘ochga boy: ko‘pi archa, chinor va oq terak.

Bu shaharga bo‘lgan hayratim tun- da, uchoq qo‘nayotganida jo‘sghan edi. Uchoq darchasidan tomosha qildim: kent chiroqlari o‘t yanglig‘ charaqlaydi; bun-day yorqinlikni endi ko‘rishi.

Dastlabki ish kunimiz Tehrondagi Tabotaboiy universitetidan boshlandi: universitetga kirganimizda bizni rahbariyat kutib oldi. Boshlab universitet rahbariyati va olimlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davra suhbat shaklida uyushtirildi. Biz tarafdan Olimjon Davlatov so‘z olib, Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi tarafidan o‘tkazilayotgan ilk ilmiy ekspeditsiya Eronidan boshlanganini ta’kidladi. Uchrashuvda Erkin A‘zamov, men, Boqijon To‘xliyev, Aftondil Erkinov, Karomat Mullaxo‘jayeva, Dilnavoz Yusupova so‘zladik. Fazliddin hammamizning so‘zimizni oqizmay-tomizmay fors tiliga tarjima qilib turdi. Bizning mulohazalarimizni, tashakkurimizni ularga yetkardi.

Qizg‘in suhbatlar kechki ovqat chog‘ida ham uzilmadi.

2024-yil, fevral oyining o‘n uchinchi kuni.

Erta bilan Eron Milliy kutubxonasi ga yo‘l oldik. Kutubxona Tehronning eng bahavo yeriga joylashgan; binosi hashamatli, mustahkam va ko‘p qavatl; katta maydonni egallaydi; tevaragi ochiq yig‘ochliq. Kutubxona tepalikda bo‘lgani uchun ulug‘ tog‘lar ko‘zga kaftday tashlanib turadi.

Bizni kutubxona direktori o‘rnbosari va bo‘lim boshliqlari kutib olishdi. U yerda kutubxona rahbariyati va olimlar bilan davra suhbat bo‘lib o‘tdi.

Bu yerdagina emas, boshqa davlat muassasalarida ham biz bilan uchrashuv ana shunday tashkil etildi: borgan yeri- mizda ular katta bir saroyga yig‘ilib turishdi. Ular bir tarafda, biz ularning qarshisida o‘tirdik; davra suhbatlari shu tarza kechdi.

Majlis Qur‘oni karim tilovati bilan boshlandi.

So‘ng Olimjon Davlatov ekspeditsiyaning maqsad va vazifalari to‘g‘risida so‘zladi; ularga bizni tanishtirdi.

Ular tarafidan bo‘lim boshliqlari, klassik fors tili bilan shug‘ullanuvchi olimlar, temuriylar davri bilan shug‘ullanuvchi tarixchilar so‘zladi. Nodir qo‘lyozmalar bo‘limining boshlig‘i so‘g‘d tili bilan shug‘ullanuvchi olma ekan. Olimlar kutubxona ishlari, kitob fondlari haqida yaxshi ma‘lumot keltirdilar.

Biz tarafidan Olimjon Davlatov birinchi so‘zni menga berdi. So‘zim boshida, o‘z niyatimni aytib qo‘ya qoldim: “Bismillahir rahmanir rahim. Yuqorida muhtarama olimamiz so‘g‘d tili va uning yodgorliklari bo‘yicha mutaxassis ekanligini aytди. Men so‘g‘d yodgorliklari bilan yonma-yon, bir zammonda yaratilgan turkiy yodgorliklar bilan shug‘ullanaman. O‘tmishda so‘g‘d tilidan ko‘pgina yodgorliklar turkiy tilga ham tarjima qilingan. Mening keyingi

# NAVOIY

## Navoiyshunoslar



yirik tarixchilar, san‘atshunoslar yig‘ilgan ekan. Ular tarafidan o‘rta asrlarda Eron va O‘rta Osiyo, oqqo‘yunlilar tarixi, Hindistondagi temuriylar tarixi, g‘aznaviyalar tarixi bilan bog‘liq ma‘ruzalar qilindi. Olimlar o‘z ishlari to‘g‘risida qiziqarli va muhim ma‘lumot berdilar. Olimlarimiz o‘rtasida mazmunli fikr almashildi. Fazliddin ilmiy ma‘ruzalarini ham o‘zbek tiliga juda chiroqli tarjima qilib turdi. Bizning mulohazalarimizni, tashakkurimizni ularga yetkardi.

Qizg‘in suhbatlar kechki ovqat chog‘ida ham uzilmadi.

2024-yil, fevral oyining o‘n uchinchi kuni.

Erta bilan Eron Milliy kutubxonasi ga yo‘l oldik. Kutubxona Tehronning eng bahavo yeriga joylashgan; binosi hashamatli, mustahkam va ko‘p qavatl; katta maydonni egallaydi; tevaragi ochiq yig‘ochliq. Kutubxona tepalikda bo‘lgani uchun ulug‘ tog‘lar ko‘zga kaftday tashlanib turadi.

Bizni kutubxona direktori o‘rnbosari va bo‘lim boshliqlari kutib olishdi. U yerda kutubxona rahbariyati va olimlar bilan davra suhbat bo‘lib o‘tdi.

Bu yerdagina emas, boshqa davlat muassasalarida ham biz bilan uchrashuv ana shunday tashkil etildi: borgan yeri- mizda ular katta bir saroyga yig‘ilib turishdi. Ular bir tarafda, biz ularning qarshisida o‘tirdik; davra suhbatlari shu tarza kechdi.

Majlis Qur‘oni karim tilovati bilan boshlandi.

So‘ng Olimjon Davlatov ekspeditsiyaning maqsad va vazifalari to‘g‘risida so‘zladi; ularga bizni tanishtirdi.

Ular tarafidan bo‘lim boshliqlari, klassik fors tili bilan shug‘ullanuvchi olimlar, temuriylar davri bilan shug‘ullanuvchi tarixchilar so‘zladi. Nodir qo‘lyozmalar bo‘limining boshlig‘i so‘g‘d tili bilan shug‘ullanuvchi olma ekan. Olimlar kutubxona ishlari, kitob fondlari haqida yaxshi ma‘lumot keltirdilar.

Biz tarafidan Olimjon Davlatov birinchi so‘zni menga berdi. So‘zim boshida, o‘z niyatimni aytib qo‘ya qoldim: “Bismillahir rahmanir rahim. Yuqorida muhtarama olimamiz so‘g‘d tili va uning yodgorliklari bo‘yicha mutaxassis ekanligini aytди. Men so‘g‘d yodgorliklari bilan yonma-yon, bir zammonda yaratilgan turkiy yodgorliklar bilan shug‘ullanaman. O‘tmishda so‘g‘d tilidan ko‘pgina yodgorliklar turkiy tilga ham tarjima qilingan. Mening keyingi

kezlardagi ishlarim chig‘atoy tili, xususan, Navoiy asarlarining tilini o‘rganishga bag‘ishlangan. Yozma manbalarni bevosita ularning qo‘lyozmalari, foto-nusxalaridan o‘rganaman. To‘g‘risini aytganda, hozirgi nashrlarga ko‘pda ishonavermayman, chunki ularni ba‘zan olimlar xato o‘qib, o‘zlaricha talqin qilib yuboradilar. Mening hamma ishlarim ilk manbaga asoslangan”. So‘ng mening ushu ekspeditsiyada qatnashishdan ko‘zlagan ikki niyatim borligini aytdim: “Birinchisi, Eron tuproqlaridagi tarixiy joylarni, qutlug‘ maqbaralarini ziyyarat qilish; ikkinchidan, Eron Milliy kutubxonasida Alisher Navoiy asarlarining nodir qo‘lyozmalari saqlanayotganidan xabarim bor, lekin ularni o‘z ko‘zim bilan ko‘rmaganman. Ollohdan tilagim, ularni ko‘rish edi”, dedim.

So‘zlarimni Fazliddin, odob bilan, juda chiroqli tarjima qilib turdi. Mening so‘zimni qo‘lyozmalar fondi boshlig‘i va direktor o‘rnbosari, ikkovlari kelishgan, istarasi issiq ayollar ekan, eshitib, bir-biriga sekingina qarab qo‘yishdi.

Menden keyin Aftondil Erkinov, Dilnavoz Yusupovaga navbat berildi. Ular ham yozma manbalar haqida so‘zlashdi. Uchovimizning fikrimiz bir yerdan chiqdi.

Majlis tugagach, rasmga tushildi; o‘zaro kitob almashinuvi bo‘ldi. Olimjon Davlatov juda yaxshi ish qildi. Alisher Navoiy jamg‘armasi tarafidan chiqarilgan kitoblardan ko‘p nusxa olib borgan-di, o‘shalardan kutubxonaga ham sovg‘a qildi.

So‘ng bizga: “Hozir Fors tilini rivojlantirish akademiyasiga boring, u yerda sizni kutishyapti. Qaytganingizdan keyin, sizga kutubxona fondini va zallarimizni ko‘rsatamiz”, deyishdi.

Soad 10:30 da Fors tilini rivojlantirish akademiyasiga bordik. U yerda akademiya rahbarlari va olimlari bilan uchrashuv bo‘ldi. Bir tarafda akademiya olimlari, ikkinchi tarafda biz o‘tirdik. Olimjon Davlatov kirish so‘zini juda chiroqli boshladi: Navoiy va Jomiy baytaridan o‘qidi. Ekspeditsiyaning maqsad va vazifalarini aytib, so‘ng bizni ularga tanishtirdi.

Eron olimlari Samarqand, Buxoro tarixi haqida iliq so‘zlarni aytishdi. O‘tmishda Buxoro Bag‘dod bilan tenglashadigan shahar edi. Bag‘dodda ilmiy asarlar arab tilida yozilgan bo‘lsa, Buxoro da fors tilida yozilgan. Yana bir jihat, temuriylar davrida turkiy til bilan bir qatorda, fors tilida yozilgan madosiy va ma‘naviy merosga ham katta